



## SAMARKAND SHAXRI VA VILOYAT TUMANLARIDA BEMORLARDAN AJRATIB OLINGAN ESHERIXIYALARING PATOVARLARI

*Mamatova Muborak Nurnupulatovna*  
*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti.*

*Isoqulova Muxabbat Mardanovna*  
*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti.*

*Shayqulov Hamza Shodievich*  
*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti.*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy izlanishda viloyatning ayrim xududlarida jumladan Samarkand shaxar va tumani, Pastdargom, Jomboy, Toyloq, Oqdaryo tumanlarida 2014 - yildan 2023 – yilgacha bo‘lgan davrlarda bemorlardan ajratib olingan esherixiyalarning patogenlik guruhi mikrobiologik tahlili qilingan. Bunda 1952 nafar bemorlardan ajratib olingan esherixiyalar o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar.** Enterobacteriaceae, Escherichia coli, E. coli, ETEC, enterotoksigen, EHEC, enterogemorragik, EIEC, enteroinvaziv, EAggEC, enteroaggregativ, DAEC.

**Kirish.** Ichak o‘tkir yuqumli kasalliklarini asosini tashkil etuvchi deariya, kolienteritlarni chaqiradigan esherixiyalarni va ularning turlarni hududlarda uchrash peyzajini va ushbu turlar orasidagi siljishni urganish, tibbiyot mikrobiologiyasida ushbu kasallikni tabiatda aylanib yurgan pato- va serologik turlarini urganishda juda muhimdir. Escherihia coli – inson va hayvonlarning ichak traktida mavjud bo‘lgan obligat sinantrop mikroorganizmlardir. E. coli genomining yuqori plastikligi odamning ichak va ichakdan tashqari lokalizatsiyasini qamrab oluvchi turli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi shtammlar paydo bo‘lishi potensialini yaratadi. O‘tkir ichak infeksiyalari (O‘II) qo‘zg‘atuvchilari sifatida diareya qo‘zg‘atuvchi E. coli (DEC) belgilangan patogenlik omillarini kodlovchi virulentlik genlarining mavjudligiga qarab olti patoguruhga bo‘lingan (EPEC – enteropatogen, ETEC – enterotoksigen, EHEC – enterogemorragik, EIEC – enteroinvaziv, EAggEC – enteroaggregativ, DAEC – diffuzno-adgerent). Ushbu ma’lumotni bilmasdan esherixiozni klinik kechishini, kasallikni dinamikasini va kaysi patoguruh va serogurux epidemik jarayonni kuchayishiga sababchi ekanligini aniqlab bo‘lmaydi.

**Ishning maqsadi.** Samarkand shaxari va viloyatning yaqin tumanlarida esherixiyalarning patoguruhi va seroguruxining uchrash manzarasini aniqlash.

**Material va metodlar.** Ishimizda viloyatning ayrim xududlarida jumladan Samarkand shaxar va tumani, Pastdargom, Jomboy, Toyloq, Oqdaryo tumanlarida 2014 - yildan 2023 – yilgacha bemorlardan ajratib olingan esherixiyalarni



mikrobiologik tahlili asosida peyzajini o‘rganib, patoguruh-serologik guruhlarga, ajratib chiqildi. Ushbu yillar mobaynida mikrobiologik retrospektiv tahlil qilgan tumanlarimizda bemorlardan ajratib olingan esherixiyalar jami 1952 tani tashkil qilgan.

**Olingan natijalar.** Bemorlardan ajratib olish va esherixiyalarning xududlar buyicha taksimlanishi quyidagi jadvalda (1-jadval) keltirilgan bo‘lib, unda esherixioz xastaligi eng kup Oqdaryo, Samarkand shaxar va tumani, Pastdarg‘om tumanlarida ya’ni 21,7% - 26,7% gacha qayd etilgan. Bemorlardan ajratib olingan esherixiyalarining atigi 9,1% Toyloq tumaniga to‘g‘ri kelgan. 2014 - 2023 yillar ichida ushbu tumanlarda esherixioz xastaligini eng kup qayd etilishi 2019 yilda 424 tani, 2021 yilda 353 tani tashkil qilgan. Bu holat 2019 yilda Samarkand shaxar va tumani va 2021 yilda Oqdaryo tuman kasalxonalarida E. coli shtammlarini kasalxona tashqarisidagi shtammlar bilan almashina boshlaganligi diqqatga sazovardir.

## 1-jadval

## **Bemorlardan ajratib olingan esherixiyalarning xududlar buyicha aniqlanishi (2014 -2023 yy.)**

Xududlar	Esherixiyalarning umumiy soni	%
Samarkand shaxar va tumani vil	488	25
Pastdarg‘om vil	424	21,7
Jomboy vil	335	17,2
Toyloq vil	184	9,4
Oqdaryo	521	26,7
<b>Jami</b>	<b>1952</b>	<b>100</b>

2018 yilda 153 ta, 2020 yilda 218 ta, 2022 yilda 258 ta esherixiya shtammlari bemorlardan ajratib olingan. Ushbu xududlarda esherixioz xastaligi eng kam 2017 yilda 85 ta, 2023 yilda 87 tani tashkil qilgan. Viloyatimizning ushbu xududlarida bemorlardan ajratib olingan esherixiyalarни qayd etilishini 10 yil ichida tahlil qiladigan bo‘lsak esherixiyalarни sonini ko‘p bulishiga qaramasdan yildan yilga esherixiyalarning patoguruh va serotiplarini xilma-xiligini kamayib borganligi aniqlandi (2-jadval).

## 2-jadval

## **Bemorlardan ajratib olingan esherixiyalarni 2014-2023 yillardagi ko'rsatkichlari**

O‘rganilgan yillar	abs	%
--------------------	-----	---




2014	121	6,2
2015	130	6,7
2016	123	6,3
2017	85	4,4
2018	153	7,8
2019	424	21,7
2020	218	11,2
2021	353	18,1
2022	258	13,2
2023	87	4,5
<b>Jami</b>	<b>1952</b>	<b>100</b>

Tadkiqotlarimizda viloyatning ushbu xududlaridagi (2014-2023 yy.) bemorlardan ajratib olingan 1952 ta esherixiyalar EPEC, ENEC, EIEC, va kam uchraydigan ETEC, EAggEC, DAEC guruhlarga ajratib chiqildi. Bunda bemorlardan 42 xil esherixiya serologik guruhlari uchraganligi aniqlandi

Ushbu yillar mobaynida bemorlardan ajratib olingan esherixiya shtammlarini (1952 ta ) patalogik guruhlarga ajratib chiqdik. Bunda 2014 yilda ETEC – 33,6 %, EPEC - 50,6 %, EHEC - 11,6 %, EIEC- 0,4 %, EAggEK - 3,7 % ni tashkil qildi (1-rasm).

### 1-rasm

#### Samarkand shaxar va tumanlarda ajratib olingan esherixiyalarning patovarlarini 2014-2023 yillardagi manzarasi





Barcha yillarda ETEC, EPEC va EHEC eng ko‘p uchrashi, EIEC, EaggEC va DAEC variantlari ancha kam uchrashligi bilan ajralib turdi.

**Xulosa.** Shunday qilib 2019-2023 yillar mobaynida Samarqand shaxar va tumani hamda viloyatning yaqin tumanlarida deareya belgilari bilan murojat etgan bemorlardan ajratilgan esherixiyalarni patogenlik guruhlari bo‘yicha tahlilida EPEK o‘rtacha 46,3 %, ETEC o‘rtacha 39,1% va EHEC o‘rtacha 13.2 % holatlarda ajralib umumiy kuzatilganlarning 98,6% ni tashkil etdi.

Retrospektiv tahlil natijalariga asoslanib biz quyidagi fikrga keldik bemorlardan ajratilgan tipik xususiyatli esherixiyalarning umumiy sonining kupayishi, serotipik turlari salmog‘ining oshishi, ilgari ham uchrab turgan esherixiyalarning ham kuproq aniqlash, kasallikni bakteriologik tashxisida uni to‘g‘ri va sifatli davolashda muhim o‘rinni egallaydi.

#### Adabiyotlar.

1. Кудратова З.Э., Юсупова Н.А., Набиева Ф.С. Нозологическая структура острых кишечных инфекций, вызванных условно-патогенной микрофлорой в Самаркандской области //Medicus. - 2019, № 6.
2. Кудратова, З.Э., Кулбоев Х., Орзикулов А. Клебсиллезная инфекция кишечника у детей раннего возраста. Журнал вестник врача. -2014. 1(01).
3. Кадыров Ж.Ф., Маматова М.Н., Осланов А.А. Влияние пандемии Covid-19 на борьбу с туберкулезом // Биология ва тиббиёт муаммолари. Илмий журнал. -2023, №1 (142).
4. Кудратова, З.Э., Кулбоев Х., Тиркашев О. Клинические и эпидемиологические особенности условно патогенной флоры кишечника // Журнал вестник врача. -2013, 1(03).
5. Маматова М.Н. Моноспецифик антирабик гипериммун зардоб // «Тиббиётда янги кун» Илмий журнал. 2023, № 4 (54).
6. Маматова М.Н. Study of the biological properties of rabies by the method of diagnosis of the "Gold standard" // Scientific Journal, Colden Brain. -2024, Volum 2 (4)
7. Nabieva F.S., Rayimova F.S., Abdusamatov B.A. Artificial intelligence in medicine // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. - 2022, - Т. 3. №. 5.
8. Шайкулов, Х.Ш., Исокурова М.М. Характеристика энтеропатогенных кишечных палочек, выделенных у детей раннего возраста // Экономика и социум". -2023. №1(104).
9. Шайкулов Х.Ш., Исокурова М.М. Бактериоциногенная активность антибиотикоустойчивых штаммов стафилококков, выделенных в Самарканде // Перспективы развития науки в современном мире. - 2022.
10. Шайкулов Х.Ш., Исокурова М.М., Маматова М.Н. Степень бактериоциногенности антибиотикорезистентных штаммов



стафилококков, выделенных в самарканде // Eurasian journal of medical and natural sciences. -2023, № 3(1).

11. Shodievich, S. H., & Fazliddinovna, B. M. (2023). STORAGE OF SALMONELLA, ESHIRICHIA AND STAPHYLOCOCCUS IN SOME DAIRY PRODUCTS DURING ITS STORAGE AT DIFFERENT TEMPERATURES. *World Bulletin of Public Health*, 19, 136-141.
12. Shayqulov, H. S., & Mamadiyorova, M. M. (2023). DIAREYA BILAN KASALLANGAN BOLALARDA AJRALUVCHI ICHAK MIKROFLORALARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(6), 20-24.
13. Yusupov, M. I., Shaikulov, K. S., & Odilova, G. M. (2020). Antigenic similarity of *E. coli* isolated from mothers and their children. *Doctor ahborotnomashi*, 4, 97.
14. Маллаходжаев, А. А., Шамсиддинаева, М. Ш., Жамалова, Ф. А., & Шайкулов, Х. Ш. (2021). ГЕМОЛИТИЧЕСКИЕ ЭШЕРИХИИ В ЭТИОЛОГИИ КИШЕЧНЫХ РАССТРОЙСТВ У ДЕТЕЙ И ГЕНЕТИЧЕСКОМ МЕХАНИЗМЕ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ. In *VOLGAMEDSCIENCE* (pp. 588-589).
15. Шайкулов, Х. Ш. (2024). Изменению микробиоценоза кишечника при поносах у детей. *Молодой ученый*.—2024, 8(507), 24-26.
16. Mardanova, I. M., & Shodievich, S. H. (2023). GEMOLITIK ESHERIXIYALARING ADGEZIVLIK XOSSALARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(6), 198-202.
17. Sh, S. X., & Sa'dinov, P. O. (2014). Rol gemoliticheskix esherixiy v strukture ostryx kishechnykh infeksiy u detey i effektivnost primeneniya probiotikov v ix lechenii.